

«Kids Card»ni bepul chiqarish» aksiyasini o'tkazish bo'yich OMMAVIY OFERTA

Mazkur ommaviy oferta (keying o'rinlarda – **Oferta**) “**Kids Card**”ni bepul chiqarish” aksiyasida (keying o'rinlarda – **Aksiya**) ishtirok etish shartlarini belgilaydi. Aksiya “**Garant bank**” Aksiyadorlik jamiyati (keying o'rinlarda – **Bank**) tomonidan o'tkaziladi.

Mazkur Oferta Bankning noma'lum shaxslar doirasiga qaratilgan rasmiy taklifi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367–369-moddalariga muvofiq, ishtirokchi tomonidan ushbu Ofertada nazarda tutilgan shartlar bajarilgan paytdan e'tiboran qabul qilingan deb hisoblanadi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Aksiya bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan bank mahsulotlarini ommalashtirish, shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladi.

1.2. Aksiya doirasida mijozlarga **Kids Card** bank kartasini kartani chiqarish uchun komissiya undirilmagan holda rasmiylashtirish imkoniyati taqdim etiladi.

1.3. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ushbu Oferta shartlariga to'liq va so'zsiz roziligini anglatadi.

1.4. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yin hisoblanmaydi va faqat reklama hamda marketing maqsadlarida o'tkaziladi.

1.5. Mazkur Ofertaning aksepti ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday cheklovlar yoki istisnalarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilishni anglatadi.

1.6. Aksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq lotereya hisoblanmaydi va mijozlar faolligini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladi.

1.7. Mazkur Ofertaning aksepti Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisnalar va/yoki cheklovlersiz to'liq hamda so'zsiz qabul qilishni anglatadi va yozma shakldagi kelishuv tuzishga tenglashtiriladi.

1.8. Mazkur Ofertani aksept qilgan holda, Ishtirokchi:

- ushbu Oferta shartlari bilan to'liq tanishganligini, ularga roziligini va ularga rioya qilish majburiyatini olganligini;

- unga Oferta mazmuni hamda uni tuzish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan yuridik oqibatlar tushunarli ekanligini;

- huquq layoqatiga/muomala layoqatiga ega ekanligini hamda Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun qonuniy huquqiga ega ekanligini tasdiqlagan hisoblanadi.

2. Aksiya tashkilotchisi

Aksiya tashkilotchisi “**Garant bank**” AJ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-yil 16-iyuldagi 42-sonli litsenziyasi.

3. Aksiyani o'tkazish muddati

3.1. Aksiya **2026-yil 25-avgustdan 2026-yil 25-oktyabrgacha** (shu kuni ham kiradi) bo'lgan davrda o'tkaziladi.

3.2. Bank Aksiyani o'tkazish muddatini uzaytirish yoki uni muddatidan oldin yakunlash huquqiga ega, bunda tegishli axborot Bankning rasmiy veb-saytida majburiy ravishda joylashtiriladi.

4. Aksiya ishtirokchilari

4.1. Aksiya 18 yoshga to'lgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblangan hamda karta nomiga rasmiylashtirilayotgan bolaning otaonasi, qonuniy vakili yoki vasiysi bo'lgan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

4.2. Aksiya ishtirok etish uchun Aksiya o'tkazilayotgan davrda **Kids Card** kartasini Bank bo'limida yoki Bankning mavjud masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali rasmiylashtirish zarur.

5. Aksiya shartlari

5.1. Aksiya o'tkaziladigan davrda **Kids Card** kartasi kartani chiqarish uchun komissiya undirilmagan holda chiqariladi.

5.2. Kartaga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa xizmatlar, agar alohida shartlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq taqdim etiladi.

5.3. Aksiya faqat Aksiya o'tkaziladigan davrda rasmiylashtirilgan **Kids Card** kartalariga tatbiq etiladi.

5.4. Bank ushbu Oferta shartlari yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini buzish holatlari aniqlangan taqdirda, Aksiya ishtirok etishni rad etish huquqiga ega.

6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Aksiya shartlarini o'zgartirish;
- Aksiyani o'tkazishni vaqtincha to'xtatib turish yoki yakunlash;
- Aksiya shartlarini suiiste'mol qilish yoki ularni buzish holatlari aniqlanganda Aksiya ishtirok etishni rad etish.

6.2. Ishtirokchi:

- to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;
- ushbu Oferta shartlari hamda Bankning ichki qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladi.

7. Shaxsga doir ma'lumotlar

7.1. Aksiya ishtirok etish ishtirokchining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilishiga roziligini anglatadi.

7.2. Bank Aksiya shartlarini (shu jumladan, muddatlarini) o'zgartirish huquqiga ega, bunda yangilangan ma'lumot Bankning rasmiy kanallarida/Bank veb-saytida majburiy ravishda joylashtiriladi. Bunda, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, o'zgartirishlar aniqlab bo'lingan g'oliblar bo'yicha majburiyatlarga tatbiq etilmaydi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur Oferta Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

8.2. Mazkur Ofertaning aksepti deb Aksiya o'tkaziladigan davrda **Kids Card** kartasini rasmiylashtirish hisoblanadi.

8.3. Mazkur Oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.